

## YOSHLAR VA AXBOROT PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI MASALALARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san ‘at”fakulteti  
“Tarix” yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi  
**Umaraliyev Boburjon Sobirjon o‘g‘li**  
Email:[bumaraliyev000@gmail.com](mailto:bumaraliyev000@gmail.com)  
Tel:(+99890)-525-05-79

**Anotatsiya:** Maqolada Yoshlar va axborot psixologik xavfsizligi ayniqsa axborot xurujlarining yosh avlodga xususan o‘smita va jamiyatga salbiy ta‘siri haqida so‘z boradi. Axborot xavfsizligining milliy xavfsizlik tizimidagi o‘rni, Axborot-psixologik xavfsizlikni tadqiq etgan olimlarning izlanishlariga diqqat qaratiladi. . Yoshlarning nazariy-mafkuraviy darajada dunyoqarashlari haqida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar va axborot psixologik xavfsizligi, zamonaviy aloqa, shaxs xavfsizligi, axborot xavfsizligi, O‘zbekiston Respublikasi, axborot erkinligi, inson va uning huquqlari, axborotning butunligi.

**Abstract:** The article talks about youth and the psychological security of information, especially the negative impact of information attacks on the young generation, especially on teenagers, and on society. The role of information security in the national security system, Attention is paid to the research of scientists who researched information-psychological security. It is about the theoretical-ideological worldview of young people.

**Key words:** Youth and psychological security of information, modern communication, personal security, information security, Republic of Uzbekistan, freedom of information, human and his rights, integrity of information.

**Аннотация:** : В статье говорится о молодежи и психологической безопасности информации, особенно о негативном влиянии информационных атак на молодое поколение, особенно на подростков, и на общество. Роль информационной безопасности в системе национальной безопасности, Уделено внимание исследованиям ученых, исследовавших информационно-психологическую безопасность. Речь идет о теоретико-идеологическом мировоззрении молодежи.

**Ключевые слова:** Молодежь и психологическая безопасность информации, современные коммуникации, личная безопасность, информационная безопасность, Республика Узбекистан, свобода информации, человек и его права, целостность информации.

**Kirish:** Axborot xavfsizligi - ko‘p qirrali faoliyat sohasi bo‘lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun huquqiy, ma‘muriy, protsedurali va dasturiy – texnik choralar qo‘llaniladi. Davlatning axborot xavfsizligini ta‘minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchimasalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda.

Axborot xavfsizligining milliy xavfsizlik tizimidagi o‘rni. XXI asrda shaxs, jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining rolini ortishi natijasida O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini axborotlashtirish jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlikni ta‘minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o‘rin egallashini belgilaydi:

- milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi;
- inson va uning huquqlari, axborot va axborot tizimlari hamda ularga egalik qilish – bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlarining asosiy elementlaridir;
- axborot yondashuvidan asosiy ilmiy – amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfsizlik masalalarini hal etish mumkin;
- milliy xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tavsifiga ega.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta‘minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog‘laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil etuvchilarini yaxlit bir butunlikka biriktiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeini belgilaydi. Xavfsizlik siyosati – xavfsizlik obyektlarini va subyektlarining berilgan ko‘pligining xavfsizligini ta‘minlash protseduralari va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to‘plami. Tizim xavfsizligini ta‘minlashning aniq mexanizmlarini tanlash qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun‘iy xarakterdagи tasodifiy yoki qasddan qilingan ta‘sirlardan axborot va uni qo‘llab – quvvatlab turuvchi infratuzilmaning himoyalanganligini tushuniladi. Bunday ta‘sirlar axborot munosabatlariga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni ta‘minlovchi infratuzilmaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi. Konfidensiallik, butunlik va

<sup>1</sup> F.Mo‘minov, Sh.Barotov va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”.

ruxsat etilganlik axborot xavfsizligini ta‘minlash borasida uchta muhim xususiyat hisoblanadi.

- axborotning konfidensialligi – axborotning holati bo‘lib, bunda axborotga ruxsat, faqat tegishli huquqqa ega bo‘lgan subyektlargagina beriladi.

- axborotning butunligi – axborotda hech qanday o‘zgartirishlar bo‘lmagan yoki o‘zgartirishlar faqat alohida huquqqa ega bo‘lgan subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan axborotning holati.

- axborotning ruxsat etilganligi – axborotga ruxsat etilgan subyektlarning, uni amalga oshirishga to‘silalar mavjud bo‘lmagan holati. Ruxsat etilganlik huquqiga axborotni yoki uning resurslarini o‘qish uchun, o‘zgartirish, nusxa olish, axborotni yo‘q qilish huquqlari kiradi.

Zamonaviy aloqa va axborot qayta ishslash vositalarining tez sur‘atlar bilan rivojlanishi insoniyat turmush tarzining o‘zgarishiga, milliy axborot va telekommunikatsiya tizimlarining yagona axborot infratuzilmasiga birlashuviga olib keldi. Bu yangi infratuzilma sayyoramizdagi insonlarning qayerda turishi va istiqomat qilishidan qat‘iy nazar, real vaqt sharoitida o‘zaro muloqot qilishlari uchun imkon yaratib, jamiyat taraqqiyotiga kuchli turtki berdi. Aytish mumkinki, insoniyat hozirgi kunda yangi jahon axborot hamjamiyatini tuzish bo‘sag‘asida turibdi. Afsus bilan qayd etish mumkinki, axborotlashuvning ana shunday ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham ko‘rinish bermoqda. Ulkan axborot makonida ijobiy ma‘nadagi axborot tizimlari bilan yonma-yon inson ruhiyatiga salbiy ta‘sir qiluvchi, uning ongini yemirishga yo‘naltirilgan <sup>2</sup>axborotlar ham aylanib yuribdi. Hozirgi zamon axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotning turli jabhalariga: iqtisodiyot, transport, aloqa tizimiga, madaniyat, qishloq xo‘jaligi, ilm – fan sohasiga tatbiq qilinishi butun jamiyatni va har bir shaxsni ana shu axborot infratuzilmasining faoliyat tarziga bog‘lab **qo‘ydi**. XX asr oxiriga qadar axborot xavfsizligi deganda, davlat, iqtisodiy va huquqiy tuzilmalar xavfsizligi tushunilgan. Shaxs xavfsizligi degan ibora deyarli ishlatilmagan. Aslida esa shaxs kamoloti, uning ijodiy salohiyati ro‘yobga chiqishi taraqqiyotning oliy maqsadi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan shaxsnинг axboriy-psixologik xavfsizligi tahdidlardan himoya qilishning birinchi maqsadi bo‘lishi lozim. Shaxs ongiga, ayniqlsa, uning ostki ongiga axborot-psixologik ta‘sir o‘tkazish xavfi kundankunga ortib bormoqda. Shaxsga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan bunday ta‘sirning bir necha turlari mavjud: - axborot tuzilmalari faoliyatining texnologik ko‘rsatkichlari bilan bog’liq bo‘lgan beixtiyoriy ta‘sir (masalan, kompyuter yoki videotexnikanining ish

<sup>2</sup> Karimov I.M., Turgunov N.A. “Axborot xavfsizligi asoslari” Toshkent – 2016.

faoliyati va jarayonida elektromagnit nurlanishi xavfi mavjudligi); - shaxs ongi va ostki ongiga uni muayyan xatti-harakatlarni bajarish yoki bajarmaslikka undash maqsadida oldindan o'ylab va rejalashtirib o'tkaziladigan ta'sir (psixotrop ta'sir; axborot-targ'ibot ta'siri; psixoanalitik ta'sir; neyrolingvistik ta'sir; psixotron ta'sir). Psixotrop ta'sir odamlar psixikasiga farmakologik preparatlar, narkologik vositalar yordamida o'tkaziladi. Bu vositalar inson asab tizimidagi bioximik jarayonlarga va uning uyqusiga, uyg'oqlik davriga, faolligiga, atrof-muhitni idrok qilish sifatiga ta'sir o'tkazadi. Psixoanalitik ta'sir insonning ostki ongiga uyg'oqlik paytida, uyqusida yoki gipnoz holatida o'tkaziladigan ta'sirdir. Shaxs psixikasiga uning diqqatini chetlab o'tib ta'sir o'tkazish jarayoni shaxsning nazoratidan tashqarida bo'ladi. Neyrolingvistik ta'sir odamlar ongiga maxsus lingvistik dasturlarni kiritish yo'li bilan ularning e'tiqodlari, qarashlari va tasavvurlarini tegishli yo'nalishda o'zgartirishni ko'zda tutadi. Psixotron ta'sir - odamlar psixikasiga sezgidan tashqari, anglanmaydigan ta'sir o'tkazish Axborot-psixologik ta'siri ikki xil darajada: nazariy-mafkuraviy va kundalikpsixologik darajalarda namoyon bo'ladi. Nazariy-mafkuraviy darajada dunyoqarashlar, ilmiy kontseptsiyalar, madaniy qadriyatlar o'rtasida kurash yuz beradi va bunda ta'sir shaxsning intellektual salohiyatiga targ'ibot, mantiqiy dalillar yordamida o'tkaziladi. Kundalik-psixologik darajada esa kurash odamlarning kayfiyatini tegishli yo'nalishda o'zgartirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda uqtirish usuli asosiy vosita hisoblanadi. Ishontirish usuli asosli dalillar keltirish yordamida shaxs e'tiqodiga ta'sir o'tkazishni maqsad qilib qo'ysa, uqtirish yordamida inson psixikasiga e'tiborni tortmasdan kirib boriladi. O'tkazilayotgan axborot-psixologik ta'sirni bir necha xil mezonlar asosida tasnif qilish mumkin. Ana shunday mezonlardan biri – ta'sirning ochiq yoki xufyaligi. Buzg'unchi ta'sirlar ko'pincha ob'ektga sezdirmasdan maxsus texnologiyalar (masalan, manipulyativ texnologiyalar, NLP texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar va h.k.) yordamida o'tkaziladi. Bunda asosiy e'tibor sub'ektning ongiga emas, ostki ongiga qaratiladi. Bunday ta'sirlardan himoyalanish uchun odamlar psixologiyadan hech bo'lmasa boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Ostki ongiga xufya tarzda o'tkazilgan ta'sir shaxsning xarakterini, xulq-atvorini o'zgartirib, aql-zakovati va ijodiy imkoniyatlarini keskin pasaytirish yuborishi mumkin. Bunday ta'sir turli darajadagi rahbarlar ostki ongiga o'tkazilganda, uning vayronkorlik miqyosi yana ham kengroq bo'ladi. Axborotlashuv davri individining axborot-ma'naviy mustaqilligi xususida quyidagilarni aytish mumkin. Har qaysi zamon turli mamlakatlar xalqlarining odatiy hayotiga ma'lum o'zgartishlar kiritish davri bo'lib kelgan. Biroq ularning hech biri bu borada axborotlashuv davridek katta yutuqqa erisha olmadi. Barcha davlatlar aholisi boshiga turli-tuman axborot oqimlari yopirildiki, ularning ko'plari esankirab qoldilar va hozir ham kimga va nimaga ishonishlarini bilolmay hayrondirlar. Shuning uchun turli mamlakatlarning fuqarolari axborotni tanlash va baholashda mustaqillik saqlashga, bunda aniq siyosiy

ko'rsatmalardan va kimlarningdir taklifi bilan ish ko'rvuchi ommaviy kommunikatsiya vositalaridan xoli bo'lishga intilmoqdalar. Axborot texnologiyalariga va katta miqdorda turli-tuman axborotga ega bo'lish ularga bu borada muvaffaqiyatli ish olib borishga imkon beradi.

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish lozimki yoshlar va axborot psixologik xavfsizligi ayniqsa axborot xuruqlarining yosh avlodga xususan o'smirga va jamiyatga salbiy ta'siri yoshlar axborotdan to'g'ri foydalanishni bilishi zarurdir. Hozirgi yosh avlod o'zları bilib-bilmay taqiqlangan ijtimoiy saytlarga kirib teraristik shaxslarga aralashib qolmoqda va ularni psixik ongini zaiflashtirmoqdalar. Ular jamiyatga salbiy tasir korsatib u ongni boshqalarga ham tarqatmoqda. Biz kattalar yoshlarga axborot-texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz zarurdir. Hozirgi zamonda kibr sport rivojlanib bormoqda yoshlar har xil mobile o'yinlarni qurbaniga aylanib qolmoqdalar buni oldini olish zarurdir.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. F.Mo'minov, Sh.Barofov va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya".
2. Karimov I.M., Turgunov N.A. "Axborot xavfsizligi asoslari" Toshkent – 2016.